

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

E.Bozorov, M.Axmadjonov

Tibbiyot elektronikasi fanining samaradorligini oshirishida “hamkorlikda” o’qitish texnologiyasining o’rni 233

N.Abdukarimova, Sh.Shuxratov

Texnik mexanika fanini texnologik ta’lim yo’nalishida o’qitish uslubiyoti 238

N.Raxmatova, Sh.Shuxratov

Texnologiya ta’limida innovatsion yondoshuv asosida o’quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish 242

B.Mamatojiyeva, Sh.Shuxratov

Yog’och materiallaridan murakkab bo’lмаган detallar va buyumlar tayyorlash texnologiyasi 248

Sh.Ashirov, D.Mirzayev

Akademik litseylarda fizika fanini o’qitishda integrativ darslar mazmunini takomillashtirish 253

KIMYO

D.Abbasova, A.Ibragimov, O.Nazarov

Ephedra Equisetina bunge o’simligidan ajratib olingan efedrin alkaloidi 257

M.Ismoilov

Qatronlar va neft kislotalari uchun adsorbentlar 262

N.Dexkanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova,

Nax seolit vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi 267

H.Qurbanov, M.Rustamov, D.Gafurova, M.Mirzoxidova

Poliakrilonitril asosida yong’inga chidamli polimer mato olish 274

I.Asqarov, M.Akbarova, Z.Smanova

Qon bosimining oshishi kasalligida ishlataladigan sintetik dorilarning inson organizmiga ta’siri 279

I.Askarov, N.Tulakov, Z.Abduraimov, N.Islamova

1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamid sintezi 283

H.Rahimova, A.Ibragimov

Phlomoides Canescens o’simligining uchuvchan moddalarini tadqiq etish 289

N.Qutlimuatov

Mahalliy xomashyolar va chiqindilar asosida olingan anionitning kimyoviy barqarorligi va sorbsion xossasi 293

M.Jo’rayev, S.Xushvaqtov

Polivinilxlorid plastikat asosida olingan sorbentning fizik-kimyoviy xossalari 299

I.Askarov, G’.Madrahimov, M.Xojimatov

O-ferrotsenil benzoy kislotasini ayrim hosilalarining biologik faolligini o’rganish 304

S.Mukhammedov, I.Askarov, Kh.Isakov, M.Mamarakhmonov

Furfurolidenkarbamidning elektron tuzilishi va kvant-kimyoviy xisobi 308

O.Tursunmuratov, D.Bekchanov

Vermikulit asosida olingan yangi ionitga Cu^{2+} ionlarining sorbsiya kinetikasi va izotermasi 311

M.Ismoilov

Karaulbozor neft fraktsiyalarini tahlili 315

M.Axmadaliyev, N.Yakubova

Ishqoriy muhitda furfurolning kondensatsiyalanishi 322

B.Nu’monov

Fosforkislotali-gipsli bo’tqasini koversiyalash asosida kompleks o’g’itlar olish 328

Sh.Yarmanov, S.Botirov, D.Bekchanov

Tabiiy polimerlar asosida biosorbentlar olinishi va qo’llanilishi 335

G’.Xayrullayev, Sh.Kadirova, B.Torambetov, S.Botirova, Sh.Mavlonova

3,3'-disulfanidilbis (1h-1,2,4-triazol-5-amin) sintezi 341

GEOGRAFIYA

Y.Axmadaliyev

Mahalliy aholining shaharsozlik an’analardida landshaft omilining o’rni 346

K.Boymirzayev, H.Naimov

Farg’ona botig’i yoyilma landshaftlarining geografik o’rganilishi va tadqiq etilishi 352

QON BOSIMINING OSHISHI KASALLIGIDA ISHLATILADIGAN SINTETIK DORILARNING INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ СИНТЕТИЧЕСКИХ ПРЕПАРАТОВ, ПРИМЕНЯЕМЫХ ПРИ ЗАБОЛЕВАНИИ ПОВЫШЕННЫМ АРТЕРИАЛЬНЫМ ДАВЛЕНИЕМ, НА ОРГАНИЗМ ЧЕЛОВЕКА

THE EFFECT OF SYNTHETIC DRUGS USED FOR THE DISEASE OF THE BLOOD PRESSURE ON HUMAN BODY

**Asqarov Ibrohimjon Rahmonovich¹, Akbarova Marvaroy Muhiddin qizi²,
Smanova Zulayho Asanaliyevna³**

¹Asqarov Ibrohimjon Rahmonovich

– Andijon davlat universiteti “Kimyo” kafedrası professori, Kimyo fanlari doktori, O’zbekiston Tabobat Akademiyasining raisi, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan ixtirochi.

²Akbarova Marvaroy Muhiddin qizi

– O’zMU, kimyo fakulteti, Analitik kimyo kafedrası, “Tovarlar kimyosi” yo’nalishi tayanch doktoranti.

³Smanova Zulayho Asanaliyevna

– O’zMU, kimyo fakulteti, Analitik kimyo kafedrası mudiri. Kimyo fanlari doktori, professor.

Annotatsiya

Maqolada qon bosimini oshishi kasalligida ishlataladigan sintetik dorilarning kimyoviy tarkibi va ularning inson organizmidagi boshqa organlarga salbiy ta’siri o’rganilgan. Kiyik o’tning kimyoviy tarkibi o’ganilib, sintetik dorilarning kimyoviy tarkibi bilan qiyoslangan. Kiyik o’tning haqiqatan ham sintetik dorilarning kimyoviy tarkibi bilan o’xshashligi sababli qon bosimini tushirishda yordam berishi aniqlangan. Kiyik o’t o’simligi asosida oziq-ovqat qo’shilmasi tovari yaratish bo'yicha xulosalar keltirilgan

Аннотация

В статье рассматривается химический состав синтетических препаратов, применяемых при лечении артериальной гипертензии, и их негативное влияние на другие органы в организме человека. Изучен химический состав зизифоры и сопоставлен с химическим составом синтетических препаратов. Было обнаружено, что зизифора действительно помогает снизить кровяное давление из-за ее сходства с химическим составом синтетических препаратов. Даются выводы по созданию продукта с пищевой добавкой на основе растения зизифора.

Abstract

The article discusses the chemical composition of synthetic drugs used in the treatment of arterial hypertension, and their negative impact on other organs in the human body .The chemical composition of ziziphora was studied and compared with the chemical composition of synthetic drugs. Ziziphora has been found to actually help lower blood pressure because of its similarity to the chemical composition of synthetic drugs. Conclusions are drawn on the creation of a food supplement product based on the ziziphora plant

Kalit so’zlar: Xalq tabobati, sintetik dorilar, qon bosimini oshishi, salbiy ta’siri , kimyoviy tarkibi, kiyik o’t, oziq-ovqat qo’shilmasi, ekologik toza.

Ключевые слова: Народная медицина, синтетические препараты, повышение артериального давления, побочные эффекты, химический состав, зизифора, пищевая добавка, экологически чистая.

Key words: Folk medicine, synthetic drugs, high blood pressure, side effects, chemical composition, ziziphora, food additive, environmentally friendly.

KIRISH. So’nggi yillarda qon bosimini oshishi aholi orasida ko’p kuzatilmoqda. Qon bosimini oshishi qon tomirlarning nerv funksional buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik.U asosan 40 yoshdan kattalarda uchraydi, lekin so’nggi yillarda yoshlarda ham tez-tez kuzatilishi qayd qilinmoqda. Qon bosimining oshishi bilan erkak va ayollar ham bir xil aziyat chekishadi. Kasallik kattalarning 20-30% da aniqlansa, 60 yoshdan keyin bu ko’rsatkich 50-65% ni tashkil etilishi kuzatilyapti. Bu kasallik yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bo’lgan bemorlar ichida yetakchi o’lim sabablaridan biri hisoblanadi.

Bu kasallikni davolash uchun turli xil dorilar soni kundan kunga oshib bormoqda. Bunday dorilar qon bosimini tezda o'z holiga keltirishi mumkin, lekin bunday dorilarning uzoq vaqt iste'mol qilish, o'rganib qolish inson hayoti uchun xavfli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 12-oktabrda imzolangan "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3968 sonli qarori va 10-aprel 2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha tadbirlar" haqidagi PQ-4668-tonli qaroriga asosan Respublika tibbiyat oliygohlariда bakalavriat tizimida 5511100-shifri ostida xalq tabobati yo'naliishlari ochilishi xalq tabobati sohasini rivojlantirish va unga bo'lgan e'tiborni oshirdi.[1,2]

Serquyosh o'lcamizning tog'-yon bag'irlarida o'sadigan xalq orasida ma'lum va mashhur, qon bosimini tushirishda tez yordam beruvchi tabiiy dorivor o'simliklardan biri – kiyik o'tdir.[5] Tabobatda faqat qon bosimini tushirishda emas, balki yana bir qator kasalliklar (asabiylilik, ari chaqishi, ayollar klimaksi, revmatizm, bosh og'rig'i, bronxlar yallig'lanishi, darmonsizlik, jigar yallig'lanishi, zotiljam, o'pka yallig'lanishi, gripp, ich dam bo'lishi, ichkilikbozlik, ishtahaning pasayishi va yo'qolishi, yo'tal, ko'z gavhari xiralashuvi, ko'kyo'tal, tonzillit, nerv og'rig'i va yallig'lanishi, radikulit, oqqon, plevrit, siydiq tutilishi, soch to'kilishi, suyak og'rig'I, tutqanoq, eshakem, o'pka efizemasi, o'rta qulqoq yallig'lanishi, qandli diabet, hayzning surilishi, hiqildaq shilliq pardasi yallig'lanishi) da foydalaniadi. [3,4]

Kiyik o't o'zida kimyoviy moddalardan efir moylarini ko'p saqlaydi. Kiyik o'tning o'sish davrlarida uning tarkibidagi efir moyi moddalarning foiz tarkibi har xil bo'ladi:

1-jadval


No	Modda nomi	Gullahdan oldin	Gullahda	Gullahdan keyin
1.	Pulegon	30.1%	44.6%	41.3%
2.	Timol	21.3 %	6.7 %	5.8 %
3.	p-menta-3-en-8-ol	12.9 %	10.5 %	11 %
4.	Piperitenon	9.3%	8.7%	-
5.	Izomenton	-	-	11.6%
6.	p-menta 3,8 dien	-	-	7.2%

Undan tashqari uning tarkibida triterpen, saponinlar, ursol, oleanol, xlorogen, flavonoidlar, kumarinlar, oksikumarinlar, aminokislotalar, makro va mikro elementlardan (Ca, Si, Al, Fe, Mg, Co, Zn, Cu, Mn, Mo, Cr va undan tashqari selen to'plab boradi), vitaminlardan (C, E, A) mavjud. [6,7]

Kiyik o'tdan xalq tabobatida qon bosimini tushirish uchun kiyik o'tidan bir osh qoshiq olib, ustiga yarim litr qaynoq suv quyib, bir soat issiq joyda og'zini yopib qo'yiladi. Keyin kunora ertalab va kechqurun bir osh qoshiqdan iste'mol qilinadi. Kiyik o'ti bosh miya qon tomirlaridagi tiqilmalarni ochish va tinchlantiruvchi xususiyatga ega, undan tashqari kiyik o'tidan 5 gr olib ustiga 0,5 l qaynoq suv quyib, 40 daqiqa damlab qo'yiladi, haftada 2-3 mahal iste'mol qilib turilsa, tinchlantiruvchi, bakteriyalarga qarshi vosita bo'lib, bosh miyadagi qon tomirlar faoliyatini yaxshilaydi.[3]

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Qon bosimini tushirishda keng miqyosda ishlataladigan sintetik dorilar (enam, enap, metildopa, propranolol, kaptopril, enapril, nifedipil, anaprilin, moksonidin, amlodipin, berlipril, kapoten) ijobjiy ta'siri bilan birgalikda salbiy ta'sirlarga ham ega.

1. Metildopa – kimyoviy tarkibi




Metildopa (1) (1960-yilda topilgan) bo'lib, yurak-qon tomir sistemasidan: ortostatik gipotensiya, bradikardiya, periferik shish, kamdan - kam hollarda-miokardit, perikardit, ovqat hazm qilish sistemasidan: og'iz qurishi, ko'ngil aynishi, quşish, ich ketishi, jigar disfunksiyasi, jigar


KIMYO

transaminazalari faolligining oshishi, sariqlik, markaziy nerv sistemasidan: uyquchanlik, lanjlik, Parkinsonizm sindromi, yurganda gandiraklash, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, gemotopoetik tizimdan: kamdan kam hollarda-gemolitik anemiya, leykopeniya, agranulotsitoz, trombotsitopeniya, tayanch-harakat sistemasidan: mialgiya, artralgiya, allergik reaksiyalar: isitma, teri toshmasi, toksik epidermal nekroliz, burun bitishi kabi salbiy ta'sirlarga ega.

Kiyik o't o'simligining kimyoviy tarkibi o'rganilib chiqilganda metildopa sintetik doriga kiyik o't tarkibidagi kofe kislotasi (2) bilan kimyoviy struktura taqqoslash orqali solishtirilganda haqiqatan ham o'xshashligi isbotlandi:




2. Anaprilin – kimyoviy tarkibi



Propanolol (Birinchi marotaba 1960-yillarda Jeyms Blek sintez qilgan), bu modda kiyik o't tarkibidagi akasetin (4) bilan kimyoviy struktura jihatidan o'xshash bo'lib, asab tizimidan: charchoq, zaiflik, bosh aylanishi, bosh og'rig'i, uyquchanlik yoki uyqusizlik, yorqin tushlar, depressiya, chalkashlik, gallyusinatsiyalar, titroq, asabiyashish, sezgi organlaridan: lakrimal suyuqlik sekresiyasining kamayishi (ko'zning quruqligi va og'rishi), yurak-qon tomir tizimidan: bradikardiya, AV blokadasi (to'liq ko'ndalang blokadasi va yurak to'xtashi rivojlanishigacha), aritmiya, surunkali yurak yetishmovchiligining rivojlanishi (kuchayishi), qon bosimining pasayishi, ortostatik gipotensiya, angiospazm (periferik qon aylanishining buzilishi, pastki ekstremitalarning sovishi, Raynaud sindromi), ko'krak og'rig'i, ovqat hazm qilish tizimidan: ko'ngil aynishi, quish, ich qotishi yoki diareya, jigar disfunksiyasi (siydikning quyuqligi, sklera yoki terining sariqligi, xolestaz), ta'm o'zgarishi, jigar transaminazalarining faolligi, nafas olish tizimidan: burun bitishi, bronxospazm, endokrin tizimidan: qonda glyukoza konsentratsiyasining o'zgarishi (gipo - yoki giperglykemiya), gematopoetik tizimidan: trombotsitopeniya (g'ayrioddiy qon ketish va qon ketish), leykopeniya, dermatologik reaksiyalar: terlashning ko'payishi, psoriazga o'xshash teri reaksiyalari, psoriaz belgilaringin kuchayishi, allergik reaksiyalar: qichishish, teri toshmasi, va bel og'rig'i, miokard infarkti, qon bosimi).

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda va chaqaloqlarda qo'llanilganda asab tizimidan: uyqusizlik, yomon uyqu sifati, gipersomniya, kabuslar, qo'zg'alish, asabiyashish, yurak-qon tomir tizimidan: bradikardiya, qon bosimining pasayishi, angiospazm, Raynaud kasalligi, nafas olish tizimidan: bronxit, bronxiolit, bronxospazm, ovqat hazm qilish tizimidan: ishtaxanining pasayishi, diareya, quish, ich qotishi, qorin og'rig'i, boshqalar: sovuq oyoq-ko'llar, qon plazmasidagi glyukoza konsentratsiyasining pasayishi, giperkalemiya, agranulotsitoz, gipoglikemik tutilishlar va homilaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yodda tutish kerak: intrauterin o'sishning kechikishi, gipoglikemiya, bradikardiya singari nohush vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Bu sintetik dori kiyik o't o'simligining kimyoviy tarkibiga kiradigan akasetin moddasi (4) bilan kimyoviy strukturalari taqqoslash orqali solishtirilganda chindan ham o'xshashligi isbotlandi:



Qon bosimini tabiiy tushiruvchi dorivor o'simlik kiyik o't o'simligining kimyoviy tarkibi o'rganilib chiqildi. Sintetik dorilarning kimyoviy tarkibi o'rganildi. Sintetik dorilar va kiyik o't o'simligining kimyoviy tarkibi taqqoslash usuli yordamida qiyoslanib chiqilganda haqiqatan ham kiyik o't o'simligi qon bosimini tushirishda yordam berishi o'z amaliy ifodasini topdi.

XULOSA. Demak, sintetik dorilardan ishlatalayotgan metildopa, anaprilin kabi dorilarning inson organizmiga salbiy ta'siri ko'p bo'lganligi uchun xuddi shunday strukturasi o'xshash bo'lgan kofe kislotasi, akasetin moddalarini kiyik o't tarkibida mavjudligini inobatga olsak, qadimdan kiyik o'ti qon bosimini tushiruvchi damlama sifatida ishlatalayotganligi ilmiy asoslab berildi. Shuning uchun biz tarkibida kofe kislotasi, akasetin moddalarini borligi uchun kiyik o't asosida oziq-ovqat qo'shilimalari tayyorlashni taklif etamiz. Bu orqali hozirda yosharib borayotgan qon bosimi oshish kasalligini oldini olish mumkin bo'ladi. Undan tashqari, bunday mahsulotni tayyorlash uchun xomashyoning arzon tushishi, ekologik toza bo'lishi bilan bir qatorda barcha yoshdag'i insonlar birdek iste'mol qilishi orqali insonlarning reproduktiv salomatligini tiklashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 12-oktabrdagi PQ-3968 sonli "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. (Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miramonovich Mirziyoyev dated October 19, 2018 No PQ 4968 "On measures to regulate the medical sector of the Republic of Uzbekistan.")
2. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 10-apreldagi PQ-4668-tonli "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha tadbirlar" haqidagi qarori (President Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Law No. PQ 4668 of April 10, 2020 "On additional measures for the development of folk medicine of the Republic of Uzbekistan.")
3. Asqarov I.R. "Tabobat qomusi" kitobi. Toshkent "MUMTOZ SO'Z" 2019.
(Askarov .I. R's book "Folk Medicine." Tashkent " MUMTOZ SOZ " 2019)
4. Asqarov I.R. "Sirli tabobat" kitobi. Toshkent "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi" – 2021.(Askarov .I. R's book "Mysterious Medicine." Tashkent "Publishing House of Science and Technology" 2021.)
5. K.Cmejkal, M.Malanik, K.Zhaparkulova, Z. Sakipova, L.Ibragimova, G. Ibadullaeva, M.Zemlicka. "Kazakh Ziziphora Species as Sources of Bioactive Substances" Molecules journal 2016, 21, 826
6. I. F. Karimova, G.A. Salimova "Kiyik o't (zizifora)ning morfologiysi, dorivorlik xususiyatlari va madaniylashtirish asoslari". Scientific Journal Impact Factor 2021: 5.723
7. (I. F. Karimova, G. A. Salimova, "Morphology of zizipora, chemical properties and bases of culture" Scientific Journal Impact Factor 2021: 5.723)
8. Franc, ois Senejoux, C. Girarda, P. Kerramb, Haji Akber Aisac, A. Berthelota, Franc, oise Bévalota, C. Demougeota, "Mechanisms of vasorelaxation induced by Ziziphora clinopodioides Lam. (Lamiaceae) extract in rat thoracic aorta". Journal of Ethnopharmacology · October 2010.